“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=335

2025-yil
11-son
noyabr
ISSN 3093-8546



Sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik muammolari: nazariy va amaliy jihatlar

Abror Otajonov,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi
mudiri, yuridik fanlar doktori, professor
e-mail: abror_otajonov@mail.ru

Аннотация. Maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan jinoiy-huquqiy muammolar tahlil qilinadi. SIning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati bilan bog‘liq yuridik javobgarlik, qilmishning subyekti va kvalifikatsiyasi masalalari ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonning normativ hujjatlaridagi (PQ-358, 2024-yil) ta’riflar tahlil qilinib, muallifning SI tushunchasiga doir jinoyat-huquqiy taklifi ilgari suriladi. SI ishtirokidagi qilmishlar uchun javobgarlikni SI ishlab chiquvchisi, ishlab chiqaruvchisi/o‘tkazuvchisi va foydalanuvchisi o‘rtasida taqsimlash qoidalari asoslantirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga SIdan foydalanib jinoyat sodir etishni jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida kiritish va g‘arazli maqsadlarda SI texnologiyalarini ishlab chiqish uchun javobgarlik belgilovchi yangi 278^{10}-moddani kiritish taklif etilgan.

Калит сўзлар. Sun’iy intellekt, jinoiy javobgarlik, jinoyat subyekti, ayb, ijtimoiy xavf, kvalifikatsiya, dasturlashtirilgan tizim, Jinoyat kodeksi

Аннотация. В статье анализируются уголовно-правовые проблемы, возникающие в результате развития технологий искусственного интеллекта (ИИ). Рассмотрены вопросы юридической ответственности, субъекта деяния и квалификации преступлений, связанных со способностью ИИ принимать самостоятельные решения. Проанализированы определения ИИ в законодательстве Узбекистана (ПП-358, 2024 г.) и предложено авторское уголовно-правовое определение. Обоснованы правила распределения ответственности за деяния, совершенные с участием ИИ, между разработчиком, производителем/распространителем и пользователем. В заключение предложены поправки в Уголовный кодекс Республики Узбекистан: включение использования ИИ в качестве отягчающего обстоятельства и введение новой статьи 278^{10} за разработку технологий ИИ в корыстных целях.

Ключевые слова. искусственный интеллект, уголовная ответственность, субъект преступления, вина, общественная опасность,

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

квалификация, программируемая система, Уголовный кодекс.

Annotation. The article analyzes the criminal-legal issues arising from the development of Artificial Intelligence (AI) technologies. It addresses legal responsibility, the subject of the offense, and the qualification of crimes related to AI's autonomous decision-making ability. Definitions of AI in Uzbek legislation (PQ-358, 2024) are analyzed, and the author's own criminal-legal definition of AI is proposed. Rules for distributing responsibility for acts involving AI among the developer, manufacturer/distributor, and user are substantiated. In conclusion, amendments to the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan are proposed: including the use of AI in crime as an aggravating circumstance and introducing a new Article 278[10] for developing AI technologies for mercenary purposes.

Keywords. Artificial intelligence (AI), criminal responsibility, subject of crime, guilt (fault), social danger, qualification, programmed system, Criminal code.

Ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti sharoitida dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta’lim, tibbiyot, bandlik, qishloq xo‘jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm va boshqa sohalarda SI imkoniyatlaridan keng foydalanish amaliyoti keng tarqalmoqda. O‘zbekistonda ham ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida SI texnologiyalarini joriy qilish, mamlakatni SI texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kiritish hamda raqamli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta’minlashga qaratilgan ishlar jadal olib borilmoqda.

Yaqin-yaqingacha robotlar, nobiologik neyron tarmoqlari va SIdan foydalanish faqat fantastik va erishib bo‘lmaydigan hodisa sifatida qaralgan bo‘lsa, inson faoliyatining axborotlashuvi va avtomatlashuvi bu tasavvurlarni haqiqatga aylantirmoqda. Shu bilan birga, fan-texnika taraqqiyotining mazkur jarayonlari insoniyatga nafaqat foyda, balki muayyan xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarishi mumkinligi alohida ta’kidlanishi lozim. So‘nggi paytlarda SI qarorlarining noadekvatligi va xavfli oqibatlari to‘g‘risidagi xabarlar va jamoatchilik munozaralari shiddatli tus olmoqda. Bu esa, SI inson omilisiz mustaqil qarorlar qabul qila olishi, SI tomonidan sodir etilgan qonunga xilof qilmishlar va ularning oqibatlari uchun kim javobgar bo‘lishi, SIning jinoyat subyekti, predmeti yoki vositasi maqomi, shuningdek, SI tomonidan yaratilgan ixtirolarga nisbatan mualliflik huquqi kabi qator savollarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, SIning ijtimoiy xavfli xususiyatlarini baholab olish maqsadga muvofiqdir.

Texnologik taraqqiyotning hozirgi holatini hisobga olgan holda, yaqin kelajakda SI imkoniyatlari sezilarli darajada oshishi va murakkablashishi mumkin. Xususan, professor N. Bostromning

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

taxminlariga ko‘ra, 2040-yilga kelib SI va insonning fikrlash jarayonlaridagi o‘xshashlik taxminan 50 foizga, 2075-yilda esa 95 foizga yetishi kutilmoqda [1. R. 187]. Bunday taxminlar SI texnologiyalari taraqqiyotiga uzviy bog‘liq holda **sun’iy ong etikasi va javobgarlik muammolarini** hal etishni taqozo etadi.

SIning ijtimoiy xavfli jihatlaridan biri – bu undan **g‘arazli yoki boshqa past niyatlarda yohud aynan jinoyat sodir etish uchun maxsus yaratilishi** mumkinligida hisoblanadi. Masalan, dronlardan narkokurer sifatida yoki terrorchilik harakatlarini amalga oshirish uchun foydalanilishi mumkin. Professor R. Arkin ham o‘z tadqiqotlarida SIdan jinoiy maqsadlarda foydalanish ehtimoli bo‘lgan jiddiy axloqiy xavflar mavjudligi to‘g‘risida fikr bildirgan [2]. Demak, SIdan nazoratsiz foydalanish yoki uning mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkoniyatlari insoniyat uchun xavfli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, SIning jinoyat-huquqiy ta’rifini ishlab chiqish, undan foydalangan holda yoki mustaqil u tomondan sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlik va u bilan bog‘liq qilmishlarni kvalifikatsiya qilish muammolarini aniqlash hamda jinoyatlarning obyektiv va subyektiv belgilarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda yuridik adabiyotlarda sun’iy intellekt tushunchasi turlicha ta’riflanadi. Jumladan, S.S. Bozorov SIga uning ishlab chiquvchisi tomonidan belgilanadigan imkoniyatlarga ega to‘liq yoki qisman muqobil holda o‘zini-o‘zi boshqaradigan kompyuter-apparat-dasturiy virtual yoki kiberfizik, shu jumladan bio-kibernetik tizim [3] deb ta’rif beradi. Sh.K. Matchanovning qayd qilishicha esa, SI – bu kompyuter yoki axborot tizimiga insonning fikrlash faoliyatini amalga oshirishga imkon beruvchi texnologiyadir [4. B. 4]. Biroq, ushbu ta’riflar SI mazmunini to‘liq ochib bermaydi, chunki ularda huquqiy jihatlarga yetarli e’tibor qaratilmagan.

O.N. O‘rinkulov va R.F. Xudoyberdiyevlar SIni insonning mantiqiy va ijodiy funksiyalarini bajaruvchi intellektual sun’iy tizim [5. B. 161] deb hisoblaydi. B. Shumsutdinov SIga inson bajara oladigan turli mantiqiy, ijodiy va boshqa amallarni bajarishga mo‘ljallangan, muayyan algoritmlardan iborat bo‘lgan dasturiy tizim [6. B. 23] deb ta’rif beradi.

SIning huquqiy tabiatini tushunish uchun normativ hujjatlardagi ta’riflarga ham e’tibor qaratish muhim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan tasdiqlangan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasi”da SIga normativ ta’rif berilgan: “Sun’iy intellekt deganda, insonning bilim va ko‘nikmalariga taqlid qilish imkonini beruvchi (shu jumladan, mustaqil ravishda o‘rganish va yechimlarni izlash) hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmui [7] tushuniladi”.

Mazkur normativ va boshqa nazariy ta’riflar SIning mohiyatini aks ettirsada, ular yuridik texnika talablariga to‘liq javob bermaydi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ular kazuistik, ortiqcha yoki haddan tashqari keng tarzda ta’riflangan bo‘lib, texnik va huquqiy jihatlar umumlashgan holda mujassamlashmagan. Shu sababli, bizningcha, SI atamasiga quyidagicha ta’rif berish maqsadga muvofiqdir: **Sun’iy intellekt** deganda, **insonning fikrlash faoliyatiga o‘xshash, eslab qolish, tahlil qilish, baholash, vazifalarga yechimlar izlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan dasturlashtirilgan tizim** tushuniladi.

Bu ta’rifdagi “insonning fikrlash faoliyatiga o‘xshash, eslab qolish, tahlil qilish, baholash, vazifalarga yechimlar izlash va mustaqil qaror qabul qilish” belgisi SIning o‘z tabiatiga ko‘ra, axborot va ma’lumotlarni muqobil holda tahlil qilib, mustaqil qaror qabul qilishi mumkinligini nazarda tutadi. SIdagi neyrotarmoqlar inson miyasidagi hujayralar va ularning faoliyatiga taqlid qilib yaratilgan bo‘lib, unda dasturiy ta’minot va boshqa raqamli neyron mahsulotlari ishlaydi. Shuning uchun, SI qonun bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazishi yoki zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan texnologik jihatdan dasturlashtirilgan matematik model va algoritmlar tizimiga asoslangan bo‘ladi.

SIni jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyatini baholash uchun bunday tizimning amalda bevosita yoki bilvosita jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etish imkoniyatiga ega yoki ega emasligini aniqlash muhim. Amaliyotning ko‘rsatishicha, SI faoliyati obyektiv ravishda jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkaza oladi (masalan, haydovchisiz boshqariladigan transport vositasi tomonidan yo‘l harakati qoidalarini buzish).

Mustaqil qaror qilish, o‘zini-o‘zi boshqarish va takomillashtirish qobiliyatiga ega SIdan foydalanish amalda murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. P.M. Morxat ta’kidlaganidek, bunday vaziyatlarda asosiy qiyinchilik qilmish va uning oqibatlari o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni aniqlash bilan bog‘liq bo‘ladi [8. S. 148]. Jinoiy javobgarlikka tortish uchun esa qilmish va oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni aniqlash asosiy shartlardan hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, SIdan foydalangan holda yoki u ishtirok etgan vaziyatlarda javobgarlik masalalarini hal qilishda quyidagi qoidalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir:

1. SIni yaratish dasturlash jarayonlariga cheklovlar kiritishni, mumkin bo‘lgan xatoliklarni va xavf-xatarlarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Agar SIning ushbu tarkibiy qismlari uchun mas’ul shaxslar mazkur jarayonlarga bila turib yoki vazifalariga loqayd yohud vijdonsizlarcha munosabatda bo‘lishi oqibatida yo‘l qo‘ysa, ular jinoyat subyekti sifatida tan olinishi mumkin.

Agar haydovchisiz boshqariladigan avtomobil tomonidan yo‘l harakati qoidalari buzilishi odam o‘limiga olib kelgan bo‘lsa va bunga SI dasturiy ta’minotning nomukammalligi sabab bo‘lganligi, uning yaratuvchisi bunday oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko‘ra olganligi aniqlansa, javobgarlik SI ishlab chiquvchisi

zimmasiga yuklanishi kerak. Bu holatda, Jinoyat kodeksining 266-moddasi subyekti maxsus subyekt bo‘lganligi sababli, ishlab chiqaruvchining qilmishi Jinoyat kodeksining **186-moddasi** (Xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni o‘tkazish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish) bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Agar shaxsning aybi jinoyat oqibatiga nisbatan qasd shaklida ifodalansa, bunday qilmishni SIdan jinoyat sodir etish quroli yoki vositasi sifatida baholab, kelib chiqqan oqibatga qarab, hayot yoki sog‘liqqa qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar bilan kvalifikatsiya qilish kerak.

2. Ushbu shaxslar tovarlar, ishlar va xizmatlarning zarur sifatini ta’minlashlari kerak. Agar ishlab chiqaruvchi yoki o‘tkazuvchi mahsulotning xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida oldindan bilgan bo‘lsa, nuqsonli SIga ega mahsulotni ishlab chiqargan yoki o‘tkazgan (sotgan) shaxslar javobgar bo‘lishlari kerak. Bunday qilmish ham, odatda, Jinoyat kodeksining **186-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Agar ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi SI texnologiyasini ishlab chiquvchisining ruxsatisiz yoki uning ixtiyoriga zid dasturiy ta’minotga tuzatishlar kiritganlik yoki tashqaridan aralashganlik holatlari aniqlansa, bunday qilmishni Jinoyat kodeksining **278⁴-moddasi** (Kompyuter tizimiga ruxsatsiz kirish) yoki boshqa tegishli moddalar bilan kvalifikatsiya qilish kerak bo‘ladi.

3. Foydalanuvchini jinoiy javobgarlikka tortish masalasi SI texnologiyasining qanchalik muqobil ekanligi va faoliyatini foydalanuvchi tomonidan nazorat qilish imkoniyatlari mavjud yoki mavjud emasligi bilan bog‘liq holda hal etiladi.

Agar SI texnologiyasining ishlashi bevosita uning foydalanuvchisining faoliyatiga bog‘liq bo‘lsa yoki uning nazorati ostida amalga oshirilsa, oqibatlar uchun uning foydalanuvchisi aybdor bo‘ladi.

Agar SI texnologiyasi ishlashi to‘liq mustaqilligi tufayli unda foydalanuvchining roli bo‘lmagan taqdirda, kelib chiqqan oqibatlarda aybi aniqlanmasa, foydalanuvchi javobgarlikka tortilmasligi kerak (aybsiz holda zarar yetkazish).

Agar SI bilan jihozlangan mahsulotdan foydalanish shartlari buzilgan ayrim hollarda foydalanuvchining qilmishi jinoiy deb baholanishi mumkin. Masalan, haydovchisiz boshqariladigan transport vositasi salonida bo‘lgan shaxs bezorilik qilib, transport vositasining to‘g‘ri harakatlanishiga to‘sqinlik qilsa va natijada boshqa shaxslarga zarar yetkazsa, uning qilmishi Jinoyat kodeksining **266-moddasi** (Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish) yoki yo‘lovchi sifatida harakatlangan taqdirda **268-moddasi** (Transport vositalaridan foydalanish tartibini buzish) bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

4. SI murakkab ishlanma bo‘lgani bilan u baribir insonlar tomonidan yaratiladi va uning imkoniyatlaridan **g‘arazli yoki boshqa past niyatlarda** foydalanish mumkinligi inkor etilmaydi. SI bilan jihozlangan mahsulotni modifikatsiyalashtirish yoki zarar

keltiruvchi dasturlarni ishlab chiqish orqali jinoyat sodir etish holatlari uchramoqda. Bunday shaxslar umumlashgan holda javobgarlik subyekti bo‘lishi mumkin.

5. SI o‘zining texnologik xususiyatlariga ko‘ra, muqobil tarzda tashqi ta’sirga nisbatan mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir. Shu sababli, har doim ham yuz bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar SI ishlab chiquvchisi, ishlab chiqaruvchisi, foydalanuvchisi yoki boshqa uchinchi shaxslarning qilmishi bilan aloqador bo‘lmasligi mumkin.

Amaldagi jinoyat qonuniga muvofiq, SI texnologiyasini jinoiy javobgarlikka tortib bo‘lmaydi, chunki u jinoyat subyekti belgilariga ega bo‘lmaydi. Bu kabi holatlar Jinoyat kodeksining 24-moddasiga asosan **aybsiz holda zarar yetkazish** deb baholanishi mumkin.

SIni jinoiy javobgarlikka tortish masalasi uning rivojlanishiga qarab o‘zgarishi mumkin. SIni shaxs sifatida o‘zini o‘zi anglashiga erishgan va qonun tomonidan jinoyat subyekti deb tan olingan taqdirdagina jinoyatning to‘laqonli subyekti sifatida javobgarlikka tortish mumkin. Bunday huquqiy institut mutlaqo yangicha yondashuvni talab qiladi va deaktivatsiya, qayta dasturlash yoki unga jinoyat subyekti maqomini berish kabi muqobil javobgarlik turlarini nazarda tutish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

SIdan foydalanish bilan bog‘liq qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikni amalga oshirish muammolarini o‘rganish quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

1. Sun’iy intellekt deganda, insonning fikrlash faoliyatiga o‘xshash, eslab qolish, tahlil qilish, baholash, vazifalarga yechimlar izlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan dasturlashtirilgan tizim tushuniladi. SIning huquqiy ta’rifini axborotlashtirish sohasini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida berish maqsadga muvofiq.

2. Jinoyat qonunchiligi SI tizimlaridan foydalanish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish sohasida kechikmoqda. SI faoliyati obyektiv ravishda ijtimoiy xavf tug‘dirishi va jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi mumkin. Hozirgi vaqtda SIning ayb mazmuni inson faoliyatining aqliy va irodaviy belgilari mazmunidan yiroq bo‘lib, ko‘proq beparvolik bilan tavsiflanadi.

3. SI tizimlaridan foydalangan holda sodir etilishi mumkin bo‘lgan qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan jinoyat subyektlari qatoriga SI texnologiyasini ishlab chiquvchisi (yaratuvchisi), ishlab chiqaruvchisi yoki o‘tkazuvchisi, foydalanuvchisi va boshqa shaxslarni kiritish mumkin.

4. SIni shaxs sifatida o‘zini o‘zi anglashiga erishgan va qonun tomonidan jinoyat subyekti deb tan olingan taqdirdagina jinoyatning to‘laqonli subyekti sifatida javobgarlikka tortish mumkin. Hozircha SIni jinoiy javobgarlikka tortib bo‘lmaydi.

5. SIdan mustaqil qarorlar qabul qilishning mumkin bo‘lgan xavflari va salbiy oqibatlarini oldini olish maqsadida chuqur tahlil qilish, SIni majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda barcha jarayonlarni

darhol to‘xtatish uchun maxsus dasturiy ta’minotni integratsiya qilish maqsadga muvofiq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktyabrdagi PQ-358-son qarorida SI texnologiyalari bo‘yicha etika qoidalarini ishlab chiqish va normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

6. SI mustaqil ravishda jinoyatning obyektiv tomonini amalga oshirishi va har qanday ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi mumkinligi sababli:

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining **56-moddasi** «jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar» bilan bog‘liq qismiga «sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib jinoyat sodir etish»ni kiritish;

SI tizimlaridan g‘arazli va boshqa past niyatlarda qasddan ishlab chiqish, ishlab chiqarish va foydalanganlik uchun quyidagi mazmundagi norma bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq:

278[10]-modda. G‘arazli yoki boshqa past niyatlarda sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, foydalanish, o‘tkazish va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish

G‘arazli yoki boshqa past niyatlarda yoki jinoyatni yashirish maqsadida sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, foydalanish, o‘tkazish va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish –

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

b) takroran yoki xavfli residivist tomonidan;

v) xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etilgan bo‘lsa, —

uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) odam o‘limiga;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa;

v) boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, –

besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bostrom N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. — Oxford: Oxford Univ. Press, 2014. – 390 p.

2. Sandberg A. Space Races: Settling the Universe Fast. Technical Report-2018. – University of Oxford, 2018. – URL: https://www.fhi.ox.ac.uk/wp-content/uploads/space-races-settling.pdf.

3. Бозаров С.С. Сунъий интеллект томонидан етказилган зарар учун жавобгарлик масалалари // https://cdn.uza.uz/2022/07/05/05/02/03h8FqhXBuvClYHXM6MJBeh509lkZFPo. pdf

4. Матчанов Ш. К. Жиноят ишини тергов қилишда сунъий интеллектдан фойдаланиш масалалари // Siyosatshunoslik,

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – 2023. – № 9. – Б. 1–5.

5. Ўринкулов О.Н., Худойбердиев Р.Ф. Ўзбекистонда сунъий интеллект технологияларини жорий этиш масалалари // Ўзбекистон Республикаси ИИВ академиясининг ахборотномаси. – 2021. – № 1 (48). – Б. 158–164.

6. Шамсутдинов Б. Жиноят процессида сунъий интеллект // Odillik mezoni. – 2020. – № 9. – Б. 23.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi «Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» PQ-358-son qaror // https://lex.uz/docs/7158604

8. Морхат П.М. Искусственный интеллект: правовой взгляд. – М.: Буки Веди, 2017. –257 с.